



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQI: O'ZBEKISTON VA JAHON TAJRIBASI

ПРАВО ПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРНЕТОМ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И МИРА

THE RIGHT TO USE THE INTERNET: EXPERIENCE OF UZBEKISTAN AND THE WORLD

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti
3-kurs talabasi*

Ruzmetov Shoxzod Ruslanbek o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada internetdan foydalanish tarixi, internetga bo'lgan huquq, O'zbekistonning hamda dunyo davlatlari misolida internetning foydalanish bo'yicha qabul qilingan va qabul qilinayotgan qonunlar, aholining internetdagi huquqlariga oid masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, internetdan foydalanish bo'yicha xalqaro hamkorlik hamda xalqaro tashkilotlarning mazkur masalaga munosabati qisqacha keltirilib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Internet, O'zbekiston Konstitutsiyasi, internet provayderi, Fikr va so'z erkinligi assotsiyasi (AFTE), Antonio Guterrish, Koketso Maeti.*

Аннотация: *В данной статье анализируются история использования сети Интернет, право на сеть Интернет, принятые и принимаемые законы об использовании сети Интернет на примере Узбекистана и стран мира, а также вопрос о правах населения на Интернет. Также кратко упоминается международное сотрудничество по использованию Интернета и отношение к нему международных организаций.*

Ключевые слова: *Интернет, Конституция Узбекистана, Интернет-провайдер, Ассоциация за свободу мысли и слова (AFTE), Антонио Гутерриш, Koketso Maeti.*

Abstract: *This article analyzes the history of Internet use, the right to the Internet, the laws adopted and adopted on the use of the Internet on the example of Uzbekistan and the countries of the world, and the issue of the rights of the population on the Internet. Also, international cooperation on the use of the Internet and the attitude of international organizations to it are briefly mentioned.*

Keywords: *Internet, Constitution of Uzbekistan, Internet provider, Association for Freedom of Thought and Expression (AFTE), Antonio Guterres, Koketso Maeti.*



KIRISH

Internet bu butunjahon axborot almashish tarmog'i hisoblanadi. Ya'ni internet orqali xohlagan ma'lumotlarni izlab topish, biron-bir ish bilan shug'ullanish, insonlar bilan muloqot qilish, turli xil ko'ngilochar mashg'ulotlar bilan shug'ullanish va boshqa ishlarni qilish mumkin. Umuman olganda, internet asosan ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

Hamma Internet haqida eshitgan va undan foydalanishni xohlaydi. Ma'lumki, Internet axborotni soniyalar ichida uzoq masofalarga uzatish imkonini beradi. Bugungi internet orqali biron-bir kishini hayron qoldirish qiyin. Hozirda internet juda tezlik bilan rivojlanmoqda va deyarli barcha davlatlarda mavjud. Uzoq vaqtlardan beri foydalanib kelayotgan davlatlar uchun internet aholining turmush tarzida, ilm-fan, san'at va boshqa sohalarning rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Hozirda internetdan asosan quyidagi maqsadlarda foydalaniladi: turli xildagi saytlar hamda dasturlar orqali (Telegram, Instagram, Facebook, Twitter, Tiktok va shu kabilar) internet axborot almashish hamda ko'ngilxushlik qilish; onlayn savdo, xizmat ko'rsatish kabi daromad topish maqsadida qilinadigan onlayn harakatlar; ilm fan maqsadlarida hamda siyosiy va ijtimoiy faoliyat.

Shu bilan birga, internet bilan bog'liq salbiy jihatlarni ham aytib o'tishimiz lozim. Odamlar internetdan ko'proq foydalangani sari undagi daxlsizlik, undan foyda ko'rish maqsadida qilinadigan noqonuniy harakatlar ham oshib boraveradi. Jumladan, urush va janjallarga sababchi bo'luvchi soxta xabarlar, kiberjinoyatchiliklar, har xil zararli oqimlar hamda yo'nalishlarni targ'ib qilish, axloqiy me'yorlarning buzilishi kabilarni aytib o'tishimiz mumkin. Shularni bartaraf etish maqsadida, davlatlar tomonidan internetdan foydalanishni tartibga soluvchi, undan yomon maqsadlarda foydalanishning oldini oluvchi hamda aholi va davlat o'rtasidagi ushbu makondagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishga ko'maklashuvchi qonun qoidalar ishlab chiqishga harakat qilinmoqda.

O'zbekistonda ham internetdan foydalanish jarayoni va ko'lami yildan-yilga o'sib boryapti. Misol uchun, 2020-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda internet foydalanuvchilari soni 22 milliondan oshgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 31 milliondan oshdi.

Shu paytgacha internetdan foydalanish tartibini nazorat qiluvchi bir qancha normalar qabul qilingan (O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining "Ma'lumotlarni uzatish tarmog'i, shu jumladan, internet xizmatlarini ko'rsatish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" gi buyrug'i (amalda kuchini yo'qotgan) hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

Mahkamasining "Ma'lumotlar uzatish milliy tarmog'ini tashkil etish va jahon axborot tarmoqlarida foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi Qarori), biroq bularning hech birida ushbu masala to'liq ravishda tartibga solinmagan.

Hammamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida 2023-yilning 30-aprel kuni yangi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Ushbu yangi **Konstitutsiya loyihasining 33-moddasida** shunday yangilalanish mavjud, ya'ni: *"Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek, davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi."*

Ushbu moddaning konstitutsiyaga kiritilishiga sabab, shubhasiz, zamon talabidir. Chunki bugungi kunda aholining kattagina qismi internetdan turli sohalar bo'yicha foydalanadilar hamda hozirda bu bo'yicha sodir qilinayotgan huquqbuzarlik holatlari ham anchagina oshgan.

Yangi Konstitutsiyaning 33-moddasida keltirilib o'tilgan *"...Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi."* ushbu jumla, nafaqat aholi uchun huquq va majburiyat yuklaydi balki davlatga ham ushbu huquqni ta'minlab berish majburiyatini yuklaydi. Chunki internet tarmog'ida kirish va undan foydalanish huquqi deganda, Respublikaning barcha aholisi uchun berilgan huquq tushunilyapti. Ya'ni ushbu moddani ikki xil tushunishimiz mumkin:

birinchidan, Konstitutsiyadagi ushbu jumla orqali nazarda tutilgan masala, aholining o'zi xohlagan paytda, o'z imkoniyatidan kelib chiqqan holda internetdan foydalanishi mumkinligi ya'ni agar foydalanish imkoniyati bo'lsa (moddiy yoki hududiy imkoniyat) foydalanishi mumkinligi;

ikkinchidan, davlat aholining barcha qismini internet bilan ta'minlashi, ya'ni hududiy jihatdan Respublikaning barcha qismiga sifatli internet yetkazib berishi va undan foydalanish imkoniyatini oshirishi.

Bizga ma'lumki, hozirgi paytda O'zbekistondagi barcha hududlar internet bilan to'liq ta'minlanmagan. Chekka qishloqlar, viloyatlardagi ba'zi aholi yashash joylari va hattoki poytaxtning ba'zi hududlarida ham internet to'liq ravishda ta'minlanmagan. Bundan tashqari, Respublikada faoliyat olib borayotgan hozirgi internet provayderlari (Beeline, Ucell, Uzmobilye, UMS va hk.)ning bir oylik



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

o'rtacha internetdan foydalanish narxi 50-100 ming so'm atrofida deb olishimiz mumkin. Ammo shunda ham uning sifati, tezligi talab darajasida emas.

Shuningdek, 33-moddada internetdan foydalanishdagi ayrim cheklovlar va taqiqlar belgilab qo'yildi. Bu orqali aholining internetdan zaharlanmasligi, turli xil saytlar orqali davlat tuzumiga qarshi harakatlar boshlanmasligi hamda axloqiy va diniy me'yorlardan chetga chiqmasligi nazarda tutiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bugungi kunda, ayniqsa, yoshlar orasida internet orqali har-xil diniy oqimlarga tushib qolish holatlari, davlat tuzumiga qarshi harakatlar, ba'zi bir rasmiy davlat saytlarini buzib kirish holatlari va axloqiy me'yorlarga to'g'ri kelmaydigan saytlardan foydalanish holatlari ko'p uchrayotganligi ham ushbu moddaga shunday qo'shimcha kiritishni taqozo etadi.

Endi jahon tajribasi misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bugungi kunda dunyo bo'yicha internet foydalanuvchilari soni 5.16 mlrd kishini tashkil etadi. Internetdan foydalanish bo'yicha Xitoy, Hindiston va AQSh peshqadam hisoblanishadi.

2023-yil holatiga ko'ra, eng ko'p raqamli aholiga ega bo'lgan davlatlar:	
Xitoy	1.05 mlrd
Hindiston	692 mln
AQSh	311.3 mln
Indoneziya	212.9 mln
Braziliya	181.8 mln

Yuqorida keltirilgan davlatlarda internetdan foydalanish ko'rsatkichlari yildan-yilga ortib boradi. Ushbu reytingda yuqori o'rinlarda turuvchi davlatlardan biri bu - **Misr**. Misrda internet foydalanuvchilari soni tobora ortib bormoqda. 2023-holatiga ko'ra, ushbu davlatda 80 mlndan ortiq internet foydalanuvchisi mavjud. Bugungi kunda Misrda internetga ulanishning o'rtacha tezligi 45,79 Mbit/s ni tashkil etadi va bu o'tgan yilgi ko'rsatkichdan 4,9 Mbit/s ga oshiqroq. Misrda internetdan foydalanish tartibi turli qonun normalari bilan tartibga solingan. Bular, "Telekominikatsiyalarni tartibga solish to'g'risida"gi Qonun, "Axborot texnologiyalari bo'yicha jinoyatlarga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, "Yer transporti to'g'risida"gi Qonun, "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, shu bilan birga Aloqa vazirligi ham tashkil qilingan. Shuningdek, Misrda Fikr va so'z erkinligi assotsiyasi (AFTE) ham mavjud. Ushbu Assotsiatsiya Misrdagi internet bilan bog'liq cheklashlar, hukumatning internet orqali aholini nazorat qilish kabi masalalar haqida so'z yuritgan. "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" hamda "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt" kabi xalqaro hujjatlarda shaxsiy daxlsizlik huquqi belgilangan. Misr ushbu pakti qabul qilgan hamda hukumat internetdan foydalanish bo'yicha



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

huquqlarni yuqorida keltirilgan deklaratsiya hamda pakt orqali aniqlashtirishga harakat qilib kelyapti.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari 2018-yilda shu haqida hisobot bilan chiqadi. Ushbu hisobotda shaxsiy daxlsizlik masalasiga quyidagicha ta'rif beriladi : *"Insonlarning o'zaro ta'sir va erkinlik tamoyillariga asoslangan o'z-o'zini rivojlantirish makonidan foydalanish huquqini yoki ularning boshqalar bilan o'zaro aloqada bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin bo'lgan "shaxsiy makon" huquqini tan olish, davlat aralashuviga yoki boshqa shaxslar tomonidan sababsiz amalga oshirilgan haddan tashqari, intruziv aralashuvga duchor bo'lishi hamda raqamli kontekstda, ma'lumotlarning maxfiyligi nafaqat mavjud ma'lumotlarni, balki tahlil qilish orqali shaxsning xatti-harakati, munosabatlari va afzalliklarini tushunish imkonini beradigan metama'lumotlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, hukumat bozor yoki vokzal kabi jamoat joylarini kuzatayotganda va u yerdagi shaxslarni kuzatib borsa, shaxsiy daxlsizlik huquqiga ta'sir qiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda shaxs to'g'risidagi ommaviy axborot to'plangan va tahlil qilinganda, shaxsiy daxlsizlik huquqiga ham ta'sir qiladi, chunki axborotni ommaga e'lon qilish uning mazmunini himoya qilish degani emas"*. Shundan so'ng, Misrda bu bo'yicha turli mulohazalar va ushbu masalani tartibga solish mexanizmi bo'yicha ishlar qilindi. 2020-yilda Misrda "Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida" Qonun qabul qilindi. Bunda asosiy sabab, davlatning iqtisodiy zaruriyati hisoblanadi. Ya'ni investorlar hamda Misrga sarmoya kirituvchilarning ishonchini qozonish hamda ularni himoya qilish maqsadida ushbu qonun qabul qilindi.

BMT Bosh kotibi Antonio Guterrish o'zining 2021-yildagi hisobotida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi global sa'y-harakatlarni ta'kidlaganida, u boshqa muammoli sohalar qatorida Internetga universal kirish zarurligini alohida ta'kidladi: "Hozir hukumatlar va ularning xalqi va jamiyatlar o'rtasidagi ijtimoiy shartnomani yangilash vaqti keldi", dedi u. "2030 yilga borib, ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash va ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, ta'lim, malaka, munosib ish va uy-joy bilan ta'minlashning yangi davrini boshlash uchun yangilangan boshqaruv tartiblarini o'z ichiga olishi kerak, asosiysi inson huquqi".¹ Internetga kirish huquqini inson huquqi sifatida tan olish uchun harakatlar BMT tomonidan 2016-yilda boshlangan. Bunda shular ta'kidlanganki, internetdan foydalanish, undan ma'lumot olish hamda tarqatish har bir insonning huquqi va bu huquq davlatlar tomonidan yoki boshqa subyektlar tomonidan cheklanishi mumkin emas. Chunki, bugungi kunda internet tarmog'I inson hayotining bir qismi sifatida rivojlanib kelmoqda. Ammo boshqa bir tomondan, internet orqali boshqa insonlarning huquqlaridan ham foydalanish

¹<https://www.globalcitizen.org/en/content/internet-access-basic-human-right/>



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

mumkin. Ya'ni bu orqali shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi buzilishi ham mumkin. 2020-yilda COVID-19 infeksiyasining ommaviy tarqalishi natijasida insonlar internetga yanayam ko'proq bog'lanib qolishdi.

Shuningdek, **Janubiy Afrikada** ham internetdan foydalanish bo'yicha, ayniqsa, bu boradagi irqiy va jinsiy kamsitishlarga e'tibor qaratilmoqda. Amandla Mobi nomli fuqarolik jamiyati tashkilotining ijrochi direktori Koketso Maeti internetdan foydalanishni demokratiyaning kalifi deb hisoblaydi. Shuningdek, ushbu shaxs Afrikadagi qora tanli aholi hamda ayol jinsiga mansub insonlarga internetdan foydalanish imkoniyati berilganida ushbu mintaqada ham rivojlanish va savodlilik darajasi, shuningdek, aholining moddiy ahvoli yaxshilanishi haqida fikr yuritadi. *"Internet hamma narsada hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ammo biz ko'rib turganimizdek, raqamli qurilmalar va texnologiyalarning tobora kengayib borishi siyosiy ishtirok etishning yangi shakllarini yaratishga, fuqarolik makonini jismoniy sohadan tashqariga kengaytirishga imkon berdi, bu esa ma'lum odamlarning bundan chetda qolishiga olib keldi"*, dedi u.²

TAKLIF VA MULOHAZALAR

Internetdan foydalanishda aholining manfaatlari, shubhasiz, ustun turmog'i lozim, biroq davlat ham o'z navbatida o'z rivoji uchun, ichki tartibni saqlash uchun hamda aholining ma'naviy ongi uchun ba'zi bir cheklovlar o'rnatishi maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Chunki internetdan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, dunyoning rivojlangan davlatlarida internet bilan bog'liq, ya'ni undan foydalanish masalasiga alohida bir masala sifatida qaraladi hamda bunda xalqaro doirada yechim berishga harakat qilinmoqda. Shularni hisobga olgan holda, ushbu sohani tartibga solish uchun bir qator takliflar bildirib o'tishimiz lozim.

Birinchidan, internetdan foydalanish bo'yicha aholining huquqiy savodxonligi oshirish hamda ushbu makonda sodir etilgan noqonuniy harakatlar tufayli ro'y berishi mumkin bo'lgan oqibatlar haqida doimiy xabardor qilish hamda buning uchun qo'llaniladigan javobgarlikni og'irlashtirish. Ushbu harakatlarni amalga oshirish va natijaga erishish ko'plab vaqt talab qilishi mumkin hamda moliyaviy va ijtimoiy jihatdan yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, ushbu sohada xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Xalqaro hamkorlik deganda faqatgina xalqaro tashkilotlar orqali olib boriladigan yig'ilishlar va qabul qilinadigan konvensiya yoki xalqaro hujjatlar orqali emas, balki ikki tomonloma va ko'ptomonlama hamkorlik masalasini ham nazarda tutish lozim. Chunki bizga ma'lumki, davlatlar xalqaro shartnomalarni qabul qilishda va unga

² <https://www.globalcitizen.org/en/content/internet-access-basic-human-right/>



"INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2023"

rioya qilishda milliy qonunchilik tizimini, urf-odat va boshqa sabablarni ro'kach qilib, ularga to'la ravishda amal qilishmaydi.

Uchinchidan, davlatlar tomonidan internet tarmog'ida joylashtiriladigan ma'lumotlar, mediafayllar hamda boshqa ko'rinishdagi axborotlarni doimiy ravishda va sinchiklab saralash tizimini yo'lga qo'yish hamda uni qattiq nazorat ostida saqlash. Shuningdek, bu sohani tartibga soluvchi, nazorat qiluvchi hamda jazolovchi xalqaro tuzilma tashkil etish ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Internet bu kelajak makoni hisoblanadi. Shu sababli uni bo'lib olish, nazorat qilish va undan foyda olish uchun qilinadigan harakatlar ortib borishi tabiiy. Undagi salbiy jihatlar yuzaga kelishi va ortib borishining oldini olish esa o'zimizga bog'liq.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

1. <https://lex.uz>
2. <https://www.un.org>
3. <https://epthinktank.eu>
4. <https://www.ohchr.org>
5. <https://www.globalcitizen.org>